



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljurnal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 3

Published: 03.03.2025
<https://universaljurnal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF

OZIQ-OVQAT SANOATI USKUNALARINI KORROZIYADAN HIMOYA QILISH UCHUN KOMPOZITSION POLIMER MATERIALLAR VA ULAR ASOSIDAGI QOPLAMALARNING SAMARALI TARKIBINI OLISH USULI

Shamayev Baxodir Ergashevich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
"Kimyo muhandisligi" kafedrasida dotsenti

Uzbekistan

nazokat3007@gmail.com

Annotatsiya. Oziq-ovqat sanoatida qo'llaniladigan uskunalarning korroziyaga yuqori sezuvchanlikka ega bo'lib, bu ularning xizmat muddatini qisqartiradi va mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotda uskunalarning korroziyadan samarali himoya qilish maqsadida kompozitsion polimer materiallar va ular asosidagi qoplamalarning optimal tarkibini ishlab chiqish usullari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida polimer matritsalar (masalan, epoksi, poliuretan) va korroziyaga qarshi xususiyatlarni oshiruvchi qo'shimchalar (nanozarrachalar, inhibitorlar) kombinatsiyasi sinovdan o'tkazildi. Eksperimental natijalar shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqilgan qoplamalar kimyoviy agressiv muhitda (tuz, kislota va namlik) korroziya tezligini 80% gacha kamaytiradi. Qoplamalarning oziq-ovqat bilan aloqa qilishdagi xavfsizligi va mexanik mustahkamligi ham tekshirildi. Ushbu usul oziq-ovqat sanoati uskunalarning chidamliligini oshirish va xarajatlarni optimallashtirish uchun samarali yechim sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: korroziya, polimer, kompozitsion material, adgezion.

Аннотация: Оборудование, используемое в пищевой промышленности, весьма чувствительно к коррозии, что сокращает срок его службы и отрицательно влияет на качество продукции. В данном исследовании изучены методы разработки оптимального состава композиционных полимерных материалов и покрытий на их основе с целью эффективной защиты оборудования от коррозии. В ходе исследований была опробована комбинация полимерных матриц (например, эпоксидной, полиуретановой) и добавок, повышающих антикоррозионные свойства (наночастицы, ингибиторы). Результаты экспериментов показали, что разработанные покрытия снижают скорость коррозии в химически агрессивных средах (соли, кислоты и влага) до 80%. Также были исследованы безопасность и механическая прочность покрытий, контактирующих с пищевыми продуктами. Этот метод рекомендуется как эффективное решение для повышения долговечности оборудования пищевой промышленности и оптимизации затрат.

Ключевые слова: коррозия, полимер, коррозионный материал, адгезия.

Abstract: Equipment used in the food industry is highly susceptible to corrosion, which reduces their service life and negatively affects product quality. In this study, methods for developing the optimal composition of composite polymer materials and coatings based on them were studied in order to effectively protect equipment from corrosion. During the research, combinations of polymer matrices (e.g., epoxy, polyurethane) and additives (nanoparticles, inhibitors) that increase anti-corrosion properties were tested. Experimental results showed that the developed coatings reduce the corrosion rate by up to 80% in chemically aggressive environments (salt, acid, and moisture). The safety and mechanical strength of the coatings in contact with food were also tested. This method is recommended as an effective solution for increasing the durability of food industry equipment and optimizing costs.

Keywords: corrosion, polymer, corrosion material, adhesion.

Language: Uzbek

Citation: Shamayev , B. (2025). METHOD FOR OBTAINING EFFECTIVE COMPOSITION OF COMPOSITE POLYMER MATERIALS AND COATINGS BASED ON THEM FOR PROTECTION OF FOOD INDUSTRY EQUIPMENT FROM CORROSION. Universal International Scientific Journal, 2(3), 13–20. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1460>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14980752>

Kirish. Jahonda adgezion mustahkam, agressiv muhitga chidamligi yuqori bo'lgan kompozitsion qoplamalarni olish imkonini beradigan polimer materiallar mavjud bo'lib, ulardan samarali

foydalanilmoqda. [1]Agressiv muhitda qo'llaniladigan kompozitsion polimer qoplamalar ishlab chiqarishda ularning tarkibiga qo'shiladigan organik mineral moddalarning tabiati, turi, tarkibiga

bog'liqligiga alohida e'tibor qaratilgan.[2] Shu bilan birga oziq-ovqat sanoati ichimliklari ishlab chiqarishda qo'llaniladigan asbob-uskunalarini korroziyadan himoyalashda antikorrozion kompozitsion polimer qoplamalarning tuzilishi va xolatini o'rganish va olish texnologiyasini ishlab chiqish asosiy o'rin egallaydi.[3.4]

Respublikamizda oziq-ovqat, alkogolli va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish uskunalarini korroziyadan himoyalash uchun agressiv muhitga chidamli materiallar va ular asosida qoplamalar ishlab chiqarish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, raqobatbardosh maxsulotlar ishlab chiqarish borasida muhim natijalarga erishilmoqda.[5] Bu borada, oziq-ovqat, alkogolli va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish uskunalarini korroziyadan himoya qilish uchun kompozitsion polimer materiallar va ular asosidagi qoplamalarning yangi samarali tarkiblarini va ularning ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish va takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.[6]

Tadqiqotning obyekti va usullari. Olib borilayotgan taddqiqotlarimiz davomida EIS-1, E-181- epoksi oligomerlari, past zichlikka ega polietilen (PZPE), dibutilftalat plastifikatori (DBF), polietilenpoliamin (PEPA) - qotiruvchi va piperidin tanlangan bulib obyektlardan foydalangan xolda standart usul va qurilmalardan foydalanilgan. Shartli



qovushqoqlik GOST 8420-74 , adgeziv zichlik GOST 14-760-69 , egiluvchanlik kuchi GOST 4648-71, elektrofizik xossalari GOST 6433.2.3.4.-71 bo'yicha, issiqlikka chidamliligi VIK qurilmasida, korroziyaga chidamliligi esa GOST 120-20-72 lar bo'yicha aniqlangan.

Olingan natijalarning taxlili. Epoksid va epoksipolietilen aralashmalarining mustahkamlik xossalarini o'rganish. Ishlab chiqilgan kompozitsiyalarning sezilarli farqi bu mustahkamlik xossalarining noadditiv o'zgarishi hisoblanadi. 1-rasmda epoksipolietilen kompozitsiyalarini bir o'qli cho'zilishidagi mustahkamlik chegarasining polietilen konsentratsiyasi va deformatsiya tezligiga bog'liqligi keltirilgan. 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, egri chiziqlar tabiatan ma'lum bir muntazam qonuniylikni anglatadi va ularning bu kabi qonuniyatga bo'ysinishi materiallarning mustahkamlik ko'rsatkichlarini o'rganilgan barcha deformatsiya tezligida va tarkib intervallarida aniqlash imkonini beradi. Termodinamik jihatdan mos bo'lmagan kompozitlardan farqli o'laroq, termodinamik jihatdan mos bo'lgan epoksid polimerlari va ular asosidagi kompozitlarning cho'zilish mustahkamlik ko'rsatkichi ancha murakkab xarakterga ega (1-rasm, a, b).

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tarkib va mustahkamlik ko'rsatkichi o'rtasida additivlik kuzatilmaydi, vaholanki, cho'zilish vaqtida mustahkamlikning o'sishiga moyillik

ko'zga tashlanadi (1a-rasm). Kam tarkibli E-181ning (5-10 mass.q) xududida ushbu ko'rsatkich sezilarli darajada oshgan, bu kam miqdordagi qo'shimchalarning sezilarli boshqaruvchanlik ta'siriga asosan

tushuntiriladi. E-181 epoksi oligomerining tarkibiy miqdori ortishi bilan cho'zilish mustahkamligi ko'rsatkichi dastlabki holatigacha pasayishi kuzatiladi.



b) – Kompozitsiyadagi E-181 oligomer tarkibi:
1-0 mass.q; 2-5 mass.q.; 3-10 mass.q;
5-20 mass.q. 6-50 mass.q.

a) Uzilishdagi cho'zilish tezligi:
1 – 10 mm/m; 2-20 mm/m; 3-50 mm/m;
4-80 mm/m; 5-100 mm/m


1-rasm. Epoksid kompozitsiyalari (EIS-1: E-181) mustahkamlik chegarasining turli cho'zilish tezligida E-181 oligomer tarkibiga (a) va kompozitsiyadagi E-181 oligomerning turli tarkibida cho'zilish tezligiga (b) bog'liqligi

Epoksid va epoksi polietilen aralashmalari adgezion birikmalarining mustahkamligini (ABM) o'rganish. ABM tadqiqotlari, bir vaqtning o'zida uzilish mustahkamligini aniqlash mobaynida, ikkita polimer aralashmasida olib borildi: 1 aralashma – epoksid oligomer EIS-1 – polietilen; 2- aralashma - epoksid oligomer EIS-1 – epoksid oligomer E-181. Cho'zilish tezligining ABMga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar keng diapazondagi (10-100 m/min) tezlikda o'tkazildi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki (2-

rasm, a), kompozitsiyadagi polietilen miqdorining 5 mass.q gacha ortishi bilan, 100 mm/min.dan tashqari, barcha cho'zilish tezligi uchun ABMda sezilarli o'sish kuzatiladi. Birinchi xolda, ABMning oshishi matritsaning mo'rtlashishi, uning ichki tortishish kuchlarining pasayishi bilan izohlanishi mumkin. Ko'p miqdordagi polietilen bilan matritsa tizimi qovushqoqligi sezilarli oshadi va polietilenning 20 mass.q. miqdorida kompozitsiya kompaundlik xossasini o'zlashtiradi. Polietilen o'zining

past zichligida yuqori extimollik bilan matritsada katta joyni egallaydi va matritsaning mutanosib ravishda to'ldirilishi munosabati bilan mos ravishda kompozitsiyadagi bog'larning faktik maydonini kamaytiradi va ABMning pasayishida polietilen ta'sirchan omil hisoblanadi. Matritsali tizimlar uchun deformatsiya tezligi o'zgarishi bilan


adheziv mustahkamlikning o'zgarish qoidasi ham buziladi. Epoksi-epoksid kompozitsiyalarida ABMning tarkibga bog'liqligi yanada murakkab xarakterga ega bo'ladi, ushbu epoksi-epoksid kompozitsiyalari asosidagi tizimlar ABMning absolyut ko'rsatkichlari polietilen bilan modifikatsiyalangan kompozitsiyalarnikiga nisbatan yuqoriroq.



a

a) Kompozitsiyadagi polietilen tarkibi:

1-0 mass.q; 2-5 mass.q; 3-10 mass.q;
4-20 mass.q. 5-50 mass.q.



b) Uzilishdagi cho'zilish tezligi:

1 – 10 mm/m; 2-20 mm/m; 3-50 mm/m;
4-80 mm/m; 5-100 mm/m

2-rasm. Epoksid (EIS-1 : E-181) kompozitsiyalar adheziv birikmalari mustahkamligining E-181 oligomeri tarkibiga (a) va cho'zilish tezligiga (b) bog'liqligi

1 va 2-jadvallarda kompozit materiallarning uzilish mustahkamligi polietilen miqdorining ortishi bilan kamayishi, bukilish va qisilish mustahkamligi esa nazorat namunalarining ko'rsatkichlari darajasida saqlanishi ko'rsatilgan.

Bunda, E-181 epoksid oligomerning polimer kompozitsiyalarning fizik-mexanik xossalariga ijobiy ta'sirini kuzatish mumkin. Bu holat o'zaro birikuvchi to'rlar hosil bo'lishi oqibatida kompozitsiya tarkibida yuz beruvchi strukturaviy o'zgarishlar bilan bog'liq.

Polietilenning turli miqdorlarida epoksi-polietilen kompozitsiyalari fizik-mexanik xossalarning qiyosiy tavsifnomasi

Ko'rsatkichlar	EIS-1-100 mass.q. PP-7 mass.q.	Polietilen tarkibi, mass.q.				
		5	10	15	20	25
Uzilish mustahkamligi, MPa	27,0	18,8	17,5	17,5	13,5	11,0
Bukilish mustahkamligi, MPa	70,0	68,0	76,0	80,0	78,0	73,0
Qisilish mustahkamligi, MPa	180,0	178,0	180,0	186,0	174,0	171,0
Zarba qayishqoqligi, kDj/m ²	7	8,5	10,0	12,5	12,5	12,0
Adgeziv mustahkamligi, MPa	22,0	27,0	26,6	26,2	21,6	19,2
Brinel bo'yicha qattiqligi, MPa	200,0	195,0	190,0	188,0	180,0	176,0
Vik bo'yicha issiqbardoshlik, °S	150,0	146,0	142,0	141,0	140,0	137,0
24 soatda suvshimuvchanlik, %	0,4	0,27	0,17	0,12	0,11	0,10

Shunday qilib, EIS-1-100 mass.q., piperidin-7 mass.q., polietilen-10-15 mass.q., E-181-20-30 mass.q. miqdordagi, yuqori fizik-mexanik xossaga ega bo'lgan

va oziq-ovqat ichimliklari sanoatidagi uskunalarni turli agressiv muhitdan samarali himoya qila oladigan, optimal tarkibli kompozitsiya ishlab chiqildi.

E-181 oligomerining turli miqdorlarida epoksi-epoksid kompozitsiyasi materiallari fizik-mexanik xossalarning qiyosiy tavsifnomasi

Ko'rsatkichlar	EIS-1-100 mass.q. PP-7 mass.q.	E-181 oligomerining 100 mass.q ga tarkibi				
		10	20	30	40	50
Uzilish mustahkamligi, MPa	27,0	23,5	18,6	27,4	28,1	29,2
Bukilish mustahkamligi, MPa	70,0	74,0	80,0	85,0	80,0	71,0
Qisilish mustahkamligi, MPa	180,0	182,0	188,0	194,0	190,0	183,0
Zarba qayishqoqligi, kDj/m ²	7	7,5	8,0	8,5	8,1	8,2
Adgeziv mustahkamligi, MPa	22,0	20,1	22,0	29,0	26,9	21,4
Brinel bo'yicha qattiqligi, MPa	200,0	210,0	220,0	218,0	205,0	195,0
Vik bo'yicha issiqbardoshlik, °S	150,0	150,0	154,0	160,0	155,0	150,0
24 soatda suvshimuvchanlik, %	0,4	0,34	0,26	0,19	0,22	0,25


«Epoksi-polietilen va epoksi-epoksid kompozitsion materiallarning korroziyaga chidamliligini o'rganish jarayoniad kompozitsiyali epoksi-polietilen va epoksid materiallar va ular asosidagi

qoplamalarning oziq-ovqat ichimliklar ishlab chiqarish va saqlash sharoitida suvga bardoshligi va chidamliligini o'rganish bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.


Oziq-ovqat ichimliklari ishlab chiqarish sanoatida ishlatiladigan texnologik uskunalar, asosan, kuchsiz kislotali, kuchsiz asosli va suvli muhit ta'siriga uchraydi. Salqin ichimliklar tarkibida 95-97%gacha suv bo'ladi. 3-rasmda 24 soat davomida epoksi-poliyeten va epoksi-epoksid kompozitsiyalarining

suvni o'ziga singdirish darajasining E-181 epoksid smolasi va poliyeten miqdoriga bog'liqligini o'rganish natijalari ko'rsatilgan, bunda asosiy komponentlarning tarkibiy qismi - EIS-1 - 100 mass.q., qotiruvchi piperidin esa - 7 mass.q. ni tashkil etdi.

a



b



EIS-1ning 100 mass.qisml, piperidinning esa 7 mass.qisml tarkibi

3-rasm. Epoksi-poliyeten va epoksi-epoksid kompozitsiyalari suvshimuvchanligining 24 soat (a), 90 sutka (b) davomida poliyeten (1) va epoksid smolasi E-181 (2)ning mavjudlik miqdoriga bog'liqligi

3a-rasmning egri chiziqlaridan ko'rinib turibdiki, epoksi-poliyeten kompozitsiyasi tarkibidagi poliyeten miqdori oshgani sayin, suvshimuvchanlik pasayishi yuzaga keladi. Suv singishining 0,4 dan 0,13% gacha keskin pasayishi, kompozitsiya tarkibidagi poliyetenning miqdorini 0 dan 15 mass.q. gacha oshirilishida kuzatiladi. Epoksi-poliyeten

kompozitsiyasi suv shimuvchanligining undagi poliyeten miqdoriga bog'liq qonuniyati, poliyetenning EIS-1 epoksid oligomeriga nisbatan ko'proq gidrofob ekanligi, suv o'tkazmaslik xususiyatiga egaligi va buning natijasida kompozitsiyaning suvshimuvchanligining pasayishiga olib kelishi bilan izohlanishi mumkin.

Shunday qilib, 100 mass.q. EIS-1 epoksid smolasi tutgan korroziyabardosh kompozitsiyalarda polietilenning eng maqbul miqdorini 15 mass.q. ga, E-181 epoksid smolasini esa 30 mass.q. deb qabul qilish mumkin. Namunalarning suvshimuvchanlik xossasini uzoq vaqt ta'siriga chidamliligini aniqlash uchun, 90 kun davomida ularni suvda saqlash usuli bilan, ishlab chiqilgan ushbu kompozitsiyalar namunalarning suv shimuvchanlik xossalarning bog'liqlik qonuniyatlari o'rganildi (3b-rasm).

Xulosa. Salqin ichimliklar muhitida bo'lgan epoksi-epoksid kompozitsiyalari

namunalari vaznining past darajasi, E-181 va EIS-1 epoksid smolalarining, qotiruvchi piperidin ishtirokida, o'zaro ta'sirida yanada zich to'rtli strukturani hosil qiladi, ushbu strukturaviy holat esa suv va oziq-ovqat ichimliklarida mavjud bo'lgan boshqa komponentlarni namunalarning chuqur qismiga singib kirishiga yetarlicha to'sqinlik qiladi.

Demak, ushbu kompozitsiyalar oziq-ovqat sanoati uskuna va qurilmalarini korroziyadan himoya qilishda, xususan, oziq-ovqat ichimliklar ishlab chiqarish va saqlash sharoitida foydalanilishi mumkin deb ishonchli xulosaga kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Долгих В.И., Лякишев Н.П., Фролов К.В. Защита металлофонада от коррозии. // Металлы. 1990. - № 5. - С. 5-14.
2. Шодиев Хамза Рузикулович, Негматова Комила Соибжановна, Негматов Сайибжан Садыкович, Абед Нодира Сойибжановна, Насриддинов Азизбек Шамсиддинович, Султанов Санжар Уразалиевич, Камалова Дилнавоз Ихтиёровна АНТИКОРРОЗИОННЫЕ КОМПОЗИЦИОННЫЕ МАТЕРИАЛЫ НА ОСНОВЕ ОРГАНОМИНЕРАЛЬНЫХ ИНГРЕДИЕНТОВ // Universum: технические науки. 2021. №1-1 (82). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/antikorroziionnye-kompozitsionnye-materialy-na-osnove-organomineralnyh-ingredientov> (дата обращения: 01.02.2023).
3. Sultanov S. et al. & Nasriddinov, A.(2022, June). Anti-corrosion coating for engineering purposes //AIP Conference Proceedings. – Т. 2432. – №. 1. – С. 050016.
4. Sultanov, S., Babakhanova, M., Yulchiyeva, S., Masharipova, M., & Jovliyev, S. (2022). Research of the Chemical Destruction Process of Composite Epoxide Materials Under the Influence of Environment. Journal of Optoelectronics Laser, 41(6), 782-787.
5. Вахабов Д.А., Негматов С.С., Тошматов А.У. и др. Изучение и выбор полимерных материалов для разработки эффективных антикоррозионной композиций и покрытий на их основе с учетом моделей химического разрушения. // «Композиционные материалы». 2003. -№1.-С. 54-55.
6. Бобылев В.А. Современное производство эпоксидных смол. Диановые и специальные смолы на основе бисфенола и его производных. Композитный мир, 2006, № 5, с. 10 – 14.